

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**


**QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
TARIX FAKULTETI FAKULTETI**

**“Globallashuv jarayonida yoshlar mustaqil
dunyoqarashini shakllantirishda ta’lim tizimi va
oiladagi muammolar hamda ularning yechimlari”
mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman**

MAQOLALAR TO‘PLAMI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
TARIX FAKULTETI



**“GLOBALLASHUV JARAYONIDA YOSHLAR MUSTAQIL
DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHDA TA’LIM TIZIMI VA
OILADAGI MUAMMOLAR HAMDA ULARNING YECHIMLARI”**

mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman

MAQOLALAR TO‘PLAMI

2024-yil 25-26-aprel

QO‘QON – 2024

UDK: 304.2

Globallashuv jarayonida yoshlar mustaqil dunyoqarashini shakllantirishda ta'lim tizimi va oiladagi muammolar hamda ularning yechimlari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman maqolalar to'plami. – Qo'qon.: QDPI, 2024. 452 b

Mas'ul muharrir: f.f.n., dotsent Z.D.Boytemirova

Tahririyat hay'ati: f.f.n., dotsent M.M.Aminova
y.f.n., dotsent N.Siddiqov
f.f.f.d. (PhD) E.Sh.Oripov
f.f.f.d. (PhD), dotsent D.B.O'rinboyev

Taqrizchilar: f.f.f.d. (PhD) Z.Y.Xamroqulov
f.f.f.d. (PhD) O.I.Ortiqov
f.f.f.d. (PhD) B.J.Shamsiddinov

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 20-martdagi №76-sonli buyrug'iga asosan Respublika ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazildi.

Mazkur to'plam globallashuv jarayonida yoshlar mustaqil dunyoqarashini shakllantirishda ta'lim tizimi va oiladagi muammolar hamda ularning yechimlari yuzasidan mahalliy tajribalar almashinuvini ta'minlash, ijtimoiy famlar sohasida yetuk mutaxassislar tayyorlashda Qo'qon davlat pedagogika institutining faol o'rnini belgilash hamda Qo'qon davlat pedagogika institutini Respublikamizning ilg'or oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan ilmiy va uslubiy hamkorlik aloqalarini o'rnatish maqsadida tayyorlandi.

Ushbu to'plam tadqiqotchilar, professor-o'qituvchilar, talabalar, shuningdek, keng jamoatchilik uchun mo'ljallangan.

Mazkur to'plamga kiritilgan materiallarning mazmuni, undagi statistik ma'lumotlar va me'yoriy hujjatlar sanasining to'g'riligiga hamda tanqidiy fikr-mulohazalarga mualliflarning o'zlari ma'suldirlar.

UDK: 94(575.1)"18/19":347.995

QO'QON XONLIGIDA QOZILIK LAVOZIMIGA TAYINLASH MASALALARI

Karimov Kaxramon Sadikovich

*Qo'qon davlat pedagogika isitituti dotsenti v.v.b.,
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

qahramonjob876@umail.uz

+998905886488

<https://orcid.org/0009-0006-2397-8572>

Annotatsiya

Maqolada bugungi kunda dunyoning qator yetakchi oliy ta'lim muassasalari va ilmiy tadqiqot institutlarida xalq sudlari faoliyati bilan bog'liq tarixiy jarayonlarni diniy urf-odat an'analari, milliy va diniy qadriyatlar, mulkchilik tizimi kabi masalalar doirasida huquqiy asoslantirilgan ijtimoiy munosabatlarni qiyosiy tahlil qilish, qo'lga kiritilgan ilmiy natijalardan kelib chiqib, taklif va tavsiyalar ishlab chiqish borasida ko'plab izlanishlar olib borilayotgani, hozirga davrda yuksak huquqiy madaniyat shakllantirish mavjud davlatlar siyosatida ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilishi sohani tadqiq etish ehtiyojini vujudga keltirayotgani, sud-huquq faoliyatiga doir ilmiy-nazariy bilimlarni yanada chuqurlashtirish, uning tarixini tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etayotgani yoritilgan.

Jahonda kechayotgan globalashuv jarayonlarida g'oyaviy, mafkuraviy va informatsion kurashning kuchayib, mahalliy lokal tarzdagi tarixiy voqea-hodisalarning xalqaro ahamiyat kasb etayotganligi tarixiy xotiraning jamiyat hayotidagi o'rnini orttirib yubordi. XX asrning oxiridagi siyosiy jarayonlar atroflicha va xolisona yoritilmagan muammolarni tarix fanining tadqiqot obyektiga aylantirdi. Bu esa yangi tarixiy faktlar asosida siyosiy voqeliklarni obyektiv o'rganish bo'yicha maxsus tadqiqotlar olib borishni talab etmoqda.

Kalit so'zlar: tarixiy hujjat, mulkchilik, meros huquqi, xalq sudylarini, qozi faoliyati.

ISSUES OF APPOINTMENT TO THE POST OF JUDGE IN THE KOKAND KHANATE

Karimov Kakhramon

*PhD, Associate Professor of the Department
of Kokand State Pedagogical Institute*

qahramonjob876@umail.uz

+998905886488

<https://orcid.org/0009-0006-2397-8572>

UDK: 94(575.1)"18/19":347.995

Abstract:

The article explores the historical processes associated with the activities of the people's courts in a number of leading higher education institutions and scientific research institutes of the world today in the context of such issues as traditions of religious tradition, national and religious values, ownership system, comparative analysis of legal-based social relations, development of proposals and recommendations based on the, it is now noted that the formation of a high legal culture is recognized as one of the priority areas in the policy of existing states, creates the need for field research, further deepening the scientific and theoretical knowledge of judicial activity, research of its history is becoming more important.

The growing ideological, ideological and informative struggle in the processes of globalization in the world, and the international importance of historical events and events in the local local way, have made historical memory a place in the life of society. The political processes of the late 20th century made problems that were not covered in detail and objectively the object of research in historical science. This requires special research into the objective study of political realities based on new historical facts.

Keywords: historical document, ownership, inheritance law, people's judges, kazi activities.

Kirish

Qozi – musulmon davlatlarida hukmdor tomonidan tayinlanadigan, shariat asosida sud vazifasini bajaruvchi, sud'ya, sha'riy mahkama raisi. O'rta Osiyo xonliklari davrida qozilar hozirgi sud, prokuror, notarius vazifalarini bajarganlar, ya'ni fiqh (shariat qonunlari) asosida fuqarolik ishlari, jinoiy ishlarni ko'rib chiqqanlar, har qanday bitim, shartnoma, vasiyatnomalarni tasdiqlaganlar.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistonda ma'muriy va davlat muassasalari boshqaruv tizimidagi o'zgarishlar bilan bir qatorda sud tizimida ham jiddiy o'zgarishlar yuz berdi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Tarixan shakllangan boshqaruv tizimida hokimlar va hududiy bo'linma boshliqlari xon oilasi a'zolari, unga yaqin guruhlar, yuqori tabaqa vakillari hamda yetakchi qabilalar sardorlari orasidan tayinlangan. Misol uchun, Xudoyorxon davri (1853-1858-yillar)da[4, s. 33] yettita beklik xonning o'g'illari va yaqin qarindoshlari tomonidan boshqarilgan. O'z

navbatida hokimlar viloyat hududlarini o'zlarining farzandlari va qarindoshlariga bo'lib berganlar. Qo'qon xonligining ma'muriy-hududiy boshqaruv tizimida bek (hokim, voliy) va uning o'rdasi alohida o'rin egallagan[16]. V.P.Nalivkinning fikricha[7, s. 208], «Qo'qon xonligida ma'muriy boshqaruv bekliklarga bo'lingan va ularni rasmiy ravishda beklar boshqargan. Bekliklar orasida nizolar, urushlar deyarli bo'lmagan, chunki ularni beklari xonning o'g'illari va aka-ukalaridan iborat edi. Beklik, o'z navbatida, aminlik yoki oqsoqollik(amin[15] yoki oqsoqol)dan iborat bo'lib, ular tarkibiy jihatdan katta jamoaning bir qismi yoki bitta o'rtacha, yoki bir nechta mahalla kiritilgan. Viloyatdan olinadigan deyarli barcha soliqlar butun viloyat ma'muriyatini, shuningdek chegaralarida joylashgan sarbozlarni qo'llab-quvvatlaydigan hokimlar boshqaruviga berilgan».

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot jarayonida tarixiylik tamoyili, qiyosiy tahlil, tizimlashtirish, tasniflash, muammoviy-xronologik hamda fanlararo yondashuv kabi usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar

Soliqlarning bir qismi natura shaklida (g'alla, non) yig'ilganligi sababli, mansabdorlarning ko'p qismi o'z haqlarini shu ko'rinishda ya'ni don-dun, bug'doy, kiyim-kechak va pul shaklida olgan[7, s. 208]. Faqat yuqori mansab egalariga xonning yoki hokimning qaroriga binoan soliqlarni (yoki daromadlarni) u yoki bu qishloqdan (yoki muassasadan, masalan, davlat tegirmonidan) yig'ish huquqi berilgan. Bitta katta qishloqni uchta, to'rtta amaldorga berish odatiy hol hisoblangan.

Xonga yiliga bir yoki ikki marotaba qimmatbaho kiyimlar, pul tortiq (sovg'a) qilingan. Bu ko'p hollarda xonning viloyatlarga tashrif buyurishi chog'ida amalga oshirilgan[7, s. 208].

Rossiya imperiyasi Turkistonni bosib olish jarayonida diniy ulamolar bilan yaqin munosabat o'rnatishga intildi. Ular diniy mansabdorlarning bo'ysundirilishi go'yoki qozi va muftiylar tomonidan yuborilgan ko'rsatmalar bo'yicha amalga oshirilgandek taassurot uyg'otishga xarakat qildi. Aslida, bu jarayon Kaufmanning buyrug'i bilan bajarilgandi. Shuningdek, Kaufman mahalliy musulmon muassasalari bilan avvalgi rasmiy aloqalarni ham to'xtatadi. Hududni boshqarish Turkiston general-gubernatorligi tasarrufida ekanligi o'lkani boshqarish to'g'risidagi "Nizom"ning birinchi bobidayoq ko'rsatib o'tilgan edi[15, v. 2]. Toshkentliklar tomonidan Orenburg general – gubernatori Krijanovskiye tarjimon Bekchurin orqali berilgan iltimosnomada qozikalon Turkistonda "Orenburg muftiysi" kabi bir xil huquqlarga ega bo'lish istagi bildirildi. M.G.Chernyayev[15] rasmiy buyruq bilan Toshkent qozikaloni vazifasiga xonlar davrida ushbu lavozimni egallab kelgan shaxsni

tasdiqladi. Shayx-ul-islom (qozikalonning katta akasi edi) lavozimi ham saqlab qolindi. Keyinchalik K.P. Kaufman har ikki lavozimni ham bekor qildi[3, s. 124].

Qo'qon xonligi davrida xon tomonidan tayinlangan hokim va qozilar ko'plab vakolat va imtiyozlarga ega bo'lgan. Ibn Abdulg'ofur o'zining "Zafarnoma-i Xudoyorxoniy" asarida ko'zga ko'ringan qozilar haqida alohida to'xtalib o'tgan[10, v. 35]. "Husan al-Voiz al-Koshifiy «Axloqi Muhsiniy» asarida esa qozilarni azizlar deb tilga oladi[8, v. 35^b]. "Kim qozi bo'lsin?" risolasida ham muhim ma'lumotlar keltirilgan[9, v. 24]. Rossiya imperiyasi davrida mahalliy aholi o'rtasida mashhur bo'lgan qozilar faoliyat yuritgan bo'lsada sekin asta ularning soni kamayib, vakolat va imtiyojlardan ham mahrum qilingan.

Tariximizda muhim o'rin tutadigan qozilar ko'plab uchraydi. Jumladan, Qo'qon xonligi davrida davlat boshqaruv tizimida qozilar ko'p hollarda shaxsan xon tomonidan maxsus farmonlar orqali tayinlangan. Qo'qon davlat muzey-qo'riqxonasi DP 638-fondi KP-1271 reestrda 15 satr, 19x35 sm hajmda 1 varaq hajmda saqlayotgan nodir qo'lyozmalar bunga guvohlik beradi. Misol tariqasi quyida Qo'qon xoni Muhammad Mallaxon fuqaro Muhammad Olimni qo'shin muftiysi tayinlash to'g'risida yorlig'(farmon)i keltiramiz. Unda, "Huval hayyul qayyum. Abulmuzaffar al-Mansur Sayyid Muhammad Mallaxon Bahodir bu hududda shariatshior jahondorlik ma'dalat atvor hukmi shunday sodir bo'ldiki, bu vaqtda jahondorlik marhamatini ko'rsatib, shuningdek, shariat rivoji bilan hanafiyya mazhabidagi jamoatlarga mehribonlik qilib buyurdik, hukm qildikki, fuzalo, amaldagi fuqaho domullo Muhammad Olimni Huqand dorus-saltanasida muftii askar (qo'shin muftiysi) bo'lsin. Toki dorus-sltanatdagi barcha qozi va ulamolar, amaldorlar va davlat arkonlari-yu ayonlari uni o'zlarining oliy muftiy askari (qo'shin muftiysi) bilib, uning huzurida, safardaligida, yig'ilish yoki majlislarda unga i'zozu ikrom ko'rsatsinlar. Uning oliy mansab vakolatiga taalluqli bo'lgan ishlar yuzasidan unga murojiat qilsunlar. Va yana mehrubonlik ko'rsatib buyurdikki, mazkur Oxund muftii askar (qo'shin muftiysi) vasiqalarda, rivoyatlar va shu sohaga oid kitoblarga, hujjatlarga, yozilgan da'vo va shu boshqa hujjatlarga qarab ishni yaxshi hal qilishi kerak. Ishga taalluqli bo'lmagan har qanday so'zlardan saqlanishi kerak. Har qanday talab va tama'dan xoli bo'lishi lozim". Zulqa'da oyi sanasi 1271 (milodiy 1859-yil). Ushbu farmon Abulmuzaffar al-Mansur Sayyid Muhammad Mallaxon tomonidan 1859-yilda domullo Muhammad Olimni Huqand dorus-saltanasida muftii askar (qo'shin muftiysi) qilib tayinlash uchun chiqarilgan [13, v. 1].

Farmon matni qog'ozning tepa qismidan boshlab pastga, o'ngdan chapga qarab arab yozuvida, forsiy tilda yozilgan. O'ng tarafda muhr, shaxs ismlari va qo'shimcha qaydlar uchun maxsus joy hamda naqshli chizmalar bor.

Bundan tashqari, **Xudoyorxonning** 1279-hijriy/1860 milodiy yil **qozi tayinlash haqidagi farmonni ko'rishimiz mumkin. Farmon** 1 varaqli 17 satrda 27,5x50,5 sm hajmni tashkil etadi. Farmon to'g'ri to'rt burchakli Qo'qon qog'oziga qora tushda yozilgan. Farmon matni qog'ozning tepa qismidan boshlab pastga, o'ngdan chapga qarab arab yozuvida, forsiy tilda yozilgan. "1882-yilda 28-...da ushbu elon ma'lum qilomiga men Mullo Rizoquli qozi Chinboy sufi o'g'li qozi bo'lmasdin ilgari ...lik vaqtimda Quboda bo'lg'uchi Muhammad Alixon madrasasig'a to'rt xissadin bir xissasig'a hokim Birqisilon mudarris erdim ... Mullo Mashrab Oxundhaq nazar xalifa o'g'li va Mullo Muhammad Yaqub Oxund Badal boy o'g'liloriin aytodurga ... Hokimimiz Birqisilon mazkur madrasag'a mudarrisdurimiz deb men qozini mudarrslikdan bekor dedur va bulorni bir vaqtlori men qozini bekor bo'lg'on xafmuni yo'q mazkur madrasani mudarrislikdan va qadar xissa mazkur madrasadan yetkodurg'on haqimni xavoqif sharhi tarif bermoydurlor. Shul sabablig' ... Bu hokim to'ram necha ... Tutuyo ma'lum qildikim uz (yoki o'n) qadar xissa haqimni ... buyicha osib bersalar deb yana uzlarni (yoki Ruzlarni) sohib ixtiyordurlaro'z o'z nahmida mudarrislik xizmatini qilib tursom"[14, v. 1].

1906-yil 11-avgust Sarmozor dahasining qozisiga shahar qozilarining bergan ijozatnomasida Sarmozor dahasining bo'lib o'tmish qozisi Domlo Obid muxdumning ta'ni bo'yicha Tursunbibi Muhammad G'oziboy qizi Sarmozor dahasi qozisiga ariza olib borgan. Arizasini mazmuni shundan iboratki, Chankatlik mahhallasidagi 26 sarjin[12] joydan 13 sarjin joyga hali haqdor ekanligini bildiradi va shu 13 sarjin joyni sotib, o'rniga yer yoki do'kon olish maqsadida qoziga ariza bergan. Sarmozor qozisi shuni so'rab shahar qozilaridan shu 13 sarjin joyni sotishga ruxsat bersam bo'ladimi? Deb qozilarga shu hujjatni yuborgan. Shahar qozilari roziliklarini bildirib, o'z muhrlarini bosib, qo'l qo'yib, Sarmozor dahasi qozisiga ijozat berishgan. Ushbu ijozatnoma 1906-yilning daftari'ga 157-raqam bilan yozilgan.

Turkiston viloyati hududida uch muzofot Sirdaryo, Farg'onava Samarqand hududlariga bo'lindi. Yettisuv va Zakaspiya hudulari ham Turkiston hududiga birlashtirgan. Ammo ushbu hududlar aholisini boshqarish o'z nizomlariga muvofiq amalga oshirilgan[15, v. 232].

O'z navbatida, Sirdaryo muzofoti Amudaryo, Oqmachit, Chimkent, Avliyoota va Toshkent uyezdalari, Farg'ona muzofoti Huqand (Qo'qon), Marg'ilon, Andijon, Namangan, O'sh uyezdalari) va Samarqand muzofoti Samarqand, Kattaqo'rg'on, Ho'jand, Jizzax uyezdalarini o'z ichiga olgan.

O'rta Osiyoda huquqiy masalalar ko'p asrlar davomida islom shariati ahkomlariga ko'ra qozilar tomonidan hal etilgan. XIX asrning ikkinchi yarmida xonliklardagi zaif siyosiy boshqaruvdan foydalanib Rusiya imperiyasi o'lkani bosib oldi va Turkistonda o'z

qonunchiligini qaror toptirishga kirishdi. Huquqiy islohotlar imperiya tarkibida yangi tashkil etilgan Turkiston general-gubernatorligi markazi Toshkent shahridan boshlandi. Aytish joizki, chor hukumati mustahkam mahalliy huquq tizimi qarshiligiga duch keldi[11].

Turkiston viloyatiga kelgan boshqa musulmon fuqaro(hamsoya)lari ham da'vo ishlari bo'yicha shu hudud qozisiga murojaat qilishlari mumkin edi[12, v. 26]. Sudlanuvchi yoki uning himoyachisi yo'qligida ish ko'rib chiqilmagan. Nafaqat jinoiy ishlar balki, kundalik maishiy masalalar, xususan, oqava suvga chiqindi tashlash, ayniqsa hammomlar va hojatxonlarni oqib turuvchi suvga oqizish qonunan ma'n qilingan[5, v. 26].

Butun o'rta asrlar musulmon davlatlarida bo'lgani kabi Qo'qon xonligidagi musulmon ruhoniylari ham alohida imtiyozlarga ega bo'lgan ijtimoiy tabaqa hisoblanib, ular davlat boshqaruvida, ta'lim – tarbiya sohasida, sud ishlarida hamda jamiyat hayotining turli sohalarida ularning fikri katta ahamiyat kasb etgan[6].

Shahar hayotida ruhoniylar fuqarolar ishini hal qilishda qozilikka (sudga) oid xamma ishlarni oshkor kilardilar. Qo'qon xonligida qozilik ishlari boshqa xonliklarda bo'lgani kabi shariat va odatlar asosida olib borilgan[4, s. 20].

Bosib olingan hududlar qishloq, ovul, volost, uyezd, viloyat ma'muriy birliklarga ajratilib[11, s. 287], 1867-yilgi "Nizom" bo'yicha oqsoqol, ovul va volost boshliqlari saylangan. Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi "Nizom"ning[12, v. 29] 223-moddasiga muvofiq, Qozilik va biylik mansabiga xalq ichida hurmati va mavqei bor, jinoyat qilmagan, jarimaga tortilmagan, tergov yoki hukm ostida bo'lmagan va 25 yoshdan kichik bo'lmagan har bir volost fuqarosi saylanishi mumkinligi ko'rsatilgan. N.Bichurin fikricha: "Sudya etib dovyurak, kuchli, murakkab ishlarga qodir bo'lgan kishilar tayinlangan"[9, v. 24].

Xulosa

Turkistonda sudlov tizimini qayta tuzishdan maqsad, uni chor Rossiyadagi shunday tizimga moslashtirish va nisbatan ma'muriyatdan mustaqil qilishdan iborat edi. Biroq, yuqorida ta'rifi keltirilgan, mohiyat e'tibori bilan mustamlaka tizimining so'nggi kunlariga qadar amalda bo'lgan kuchaytirilgan va favkulodda ko'riqlov to'g'risidagi "nizomlar" tufayli sudning ma'muriyatdan ajratilishi faqat rasmiy xarakterga ega buldi. Shunga qaramay XIX asr oxiridagi sud tuzilishi oldingisidan farq qilardi[1, s. 133].

Islomiy hujjatlar xususan, qozilik mahkamasi hujjatlari ma'lum bir an'analar asosida rasmiylashtirilgan va ularda qozining muhri, yozma qarori, masala yuzasidan dalili keltirilgan bo'lishi shart qilingan. Turkistonda xalq sudya(qozi)larining huquqiy me'yorlar legalizatsiyasi jarayonida ushbu holatlar saqlanib qolingan bo'lsa-da ayrim o'zgarishlar ham kuzatiladi. Masalan, hujjatlar qo'lyozma shaklda yoki yozuv mashinkasida maxsus kotiblar

tomonidan yozilgan. Xat va xabarlar pochta xizmati orqali maxsus markalar yopishtirilgan holda jo'natilgan va jiddiy mazmundagi xabarnomalar so'rg'ichlangan. Rus imperiyasi ma'muriyatiga tegishli hujjat va qog'ozlarda bosma gerb, naqshlar, hudud va tashkilot nomlari, tipografik elementlar uchraydi.

Xullas, Turkiston o'lkasida mahalliy boshqaruv tizimning taraqqiyot yo'li, ijtimoiy, siyosiy, huquqiy, tarixiy merosi, ularning g'oyaviy yo'nalishlari, qozilik mahkamalari notarial laboratoriyasini chuqur o'rganish o'zbek davlatchilik tarixi, xususan, XIX asr oxiri – XX asr boshlari o'zbek xalqining huquqiy boshqaruvda milliy ruh aks etish manzarasini teran tasavvur etish imkonini beradi.

Fodalanilgan adaiyotlar ro'yxati:

1. Abdurahmonxo'jayev J. Qozilik sudlari: tarixdan saboqlar. // "Odillik mezon" ilmiy-amaliy, huquqiy jurnal. 4-son 2020. – B. 37 b.
2. Abduraximova N.A., Ergashev F.R. Turkistonda chor mustamlaka tizimi. Toshkent, Akademiya, 2002-y. – B. 133.
3. Bartold V.V. Istoriya kulturnoy jizni Turkestana. Leningrad. Izdatelstvo akademii nauk SSSR, 1927. – S. 124.
4. Bobobekov H.N. Qo'qon tarixi. – Toshkent: Fan, 1996. – B. 33.
5. Dastur ul-amal. – Toshkent: FASHI. – Qo'lyozma № 571. – V. 26.
6. Obid Tangriyev. Toshkent qozilari. Tafakkur. Ijtimoiy-falsafiy, ma'nafiy-ma'rifiy jurnal. 1/2016. – S.124.
7. Nalivkin V.P. Kratkaya istoriya Kokandkago xanstva. Kazan Tipografiya Imperatorkago Universiteta, 1886. – 208 ct.
8. Mavlono Xusan al-voiz al-Koshifiy. «Axloqi Muhsiniy». – Toshkent: FASHI. – Qo'lyozma № 1665. – B. 35^b.
9. Mavlono Xusan al-voiz al-Koshifiy. Kim qozi bo'lsin? – Toshkent: FASHI. – Qo'lyozma № 9448. 24-varaq.
10. Ibn Abdulg'ofur «Zafarnomai Xudoyorxoniy». – Toshkent: FASHI. – Qo'lyozma № 1636. 35-varaq.
11. Turkestanskiy sbornik. 1867. T. 6. – S 287.
12. Qonun. – Toshkent: FASHI. – Qo'lyozma № 730. – V 29.
13. Qo'qon davlat muzey-qo'riqxonasi DP 638-fondi KP-1271, 1 varaq.
14. Qo'qon davlat muzey-qo'riqxonasi DP 639-fond, KP 1272, 1 varaq.
15. Turkiston viloyatidagi xalqlarni zabt va rabt qilmoq ya'ni boshqarmog'ining nizomi – Toshkent: FASHI. – Qo'lyozma № 9542. – V. 2.

Globalashuv jarayonida yoshlar mustaqil dunyoqarashini shakllantirishda ta'lim tizimi va oiladagi muammolar hamda ularning yechimlari

392-395	OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI VA G'OYAVIY TARBIYANING USTUVOR YO'NALISHLARI
Yuldasheva Matluba Munavarovna	
396-399	SHAXS MA'NAVIY-AXLOQIY KAMOLOTI RIVOJLANISHIDA MAFKURAVIY TARBIYA MASALALARI
Xodjayev O.Sh., Maxmudova Nozaninxon Nuriddin qizi	
400-402	O'ZBEKISTONDA KONFESSIYALARARO KONSTRUKTIVIZMNING ROLI VA UNING YOSHLAR TARBIYASIGA TA'SIRI
Xodjayev Olimxon Shavkatovich	
403-406	GLOBALASHUV JARAYONIDA IJTIMOIIY FAOL SHAXSNI TARBIYALASHDA MAFKURAVIY JARAYONLARNING AHAMIYATI
Xodjayev O.Sh.	
407-410	OILADA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLARNING O'RNI VA AHAMIYATI
Miraxmedov Jaxongir Muxsinovich, Juraboyeva Sadoqatbonu	
411-414	AMIR TEMUR HARBIY SA'NATI TARIXINI O'RGANISHDA "INDIVIDUAL DARS" SHAKLI ORQALI O'QUVCHILAR FAOLIYATINI FAOLLASHTIRISH
Raшидахон Муқимовна Аҳмедова, Тохир Ботиров	
415-420	MIROVOY SUDLARI FAOLIYATIDA ISH YURITISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI
Karimov Kaxramon Sadikovich	
421-429	QOZI(SUDYA)LAR HUKM CHIQARISH VA TERGOV QILISH TARTIBLARI TARIXIDAN
Karimov Kaxramon Sadikovich	
430-436	QO'QON XONLIGIDA QOZILIK LAVOZIMIGA TAYINLASH MASALALARI
Karimov Kaxramon Sadikovich	
437-443	TURKISTONDA JADIDCHILIK HARAKATLARINING BOSHLANISHI
Xaydarova Dilorom Abduxamidovna	
444-448	